



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SUV XO'JALIGI OBYEKTTLARI XAVFSIZLIGINI VA SUVDAN
FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH
INSPEKSIYASI
BUYRUQ**

2024-yil 27-dekabr

Toshkent sh.

74-sonli

**Inspeksiya va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy
hujjatlarni takomillashtirish to'g'risida**

Inspeksiya va uning tizim tashkilotlarida ochiqlik, adolatlilik, tenglik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xodimlarning odob-axloq va jamiyatda yurish-turish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarini shakllantirish hamda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida ochiqlik, adolatlilik, tenglik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xodimlarning odob-axloq va jamiyatda yurish-turish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liq hujjatlar quyidagi tartibda yangi tahrirda tasdiqlansin:

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish to'g'risida"gi Nizom 1-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati" 2-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti" 3-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha" Yo'riqnomalar 4-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida kontragentlarni tekshirishga oid" Yo'riqnomalar 5-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha" Yo'riqnomalar 6-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash tiziminining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha" Nizom 7-ilovaga muvofiq;

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi va tizim tashkilotlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish" Reglamenti 8-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish” Uslubiyoti 9-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha” Reglamenti 10-ilovaga muvofiq.

3. Inspeksiyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimi (A.Raximov) **har chorak yakuni bo‘yicha** Inspeksiya markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbar-xodimlari ishtirokida korrupsiyaviy omillar hamda odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlari yuzasidan rahbariyat muhokamasiga axborot kiritilishini ta’minlasin.

4. Inspeksiyaning Qoraqlapog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari boshliqlariga:

mazkur buyruqdan kelib chiqib **10 kun muddatda** ichki idoraviy hujjatlarini tasdiqlash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va xodimlarning odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan shaxsan nazorat olib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Inspeksiya boshlig‘ining 2024-yil 1-apreldagi 21-sonli buyrug‘i va uning ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosari Z.Irisboev zimmasiga yuklatilsin.

Boshliq

R. Raximov

КОПИЯ ВЕРНА

